

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI**

**KASBIY TA'LIM AGENTLIGI**

**KASBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**



**«TASDIQLAYMAN»**

Kasbiy ta'limni rivojlantirish  
instituti direktori

X.Kadirov

2026 yil

**“TA'LIMDA BOSHQARUV”**

kafedrası

**PSIXODIAGNOSTIKA**

fani bo'yicha

**ISHCHI O'QUV DASTURI**

**Ta'lim turi:** Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash  
**Tinglovchilar toifasi** Nomutaxassis oliy ma'lumotli shaxslar

**TOSHKENT**

Mazkur ishchi o‘quv dastur Nomutaxassis oliy ma’lumotli shaxslar bo‘yicha kasbiy qayta tayyorlash kursi o‘quv rejasi va namunaviy o‘quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchi:**

N.A.Roziqova

Kasbiy ta’limni rivojlantirish instituti,  
“Ta’limda boshqaruv” kafedrası dotsenti,  
P.f.f.d. (PhD)

**Taqrizchilar:**

M.Dadaxodjayeva

Kasbiy ta’limni rivojlantirish instituti,  
“Ta’limda boshqaruv” kafedrası dotsenti,  
Psixologiya fanlari nomzodi

U.B.Mamanazarov

Oriental Universiteti “Uzluksiz ta’lim  
pedagogikasi” kafedrası katta  
o‘qituvchisi, Psixologiya fanlari falsafa  
doktori (PhD)

Kasbiy ta’limni rivojlantirish instituti Ilmiy-pedagogik kengashida ma’qullangan.  
202\_\_yil \_\_\_\_-sonli bayonnoma.

## I. TUSHUNTIRISH XATI

Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasining rivojlanishi hamda psixologik xizmat sifatiga bo'lgan talabning ortib borishi psixolog mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan psixologlardan nafaqat nazariy bilim, balki shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini ilmiy asosda aniqlash, tahlil qilish va baholash ko'nikmalariga ega bo'lish talab etiladi. Shu jihatdan psixodiagnostika fani amaliy psixolog tayyorlash tizimining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

Ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 23 iyulda "Aholiga psixologik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi O'RQ-989-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrda "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrda "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrda "Kasbiy ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-190-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrda "Kasbiy ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-316-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyulda "O'quvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 577-son Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-fevralda "Professional ta'lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 106-son Qarori hamda ta'lim tashkilotlari Amaliyotchi psixologi huquqini berish bo'yicha kasbiy qayta tayyorlash kursining namunaviy o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Psixodiagnostika insonning psixik holati, qobiliyati, intellekti, xarakteri, motivatsiyasi va boshqa individual xususiyatlarini maxsus metod va metodikalar yordamida aniqlashga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy yo'nalishdir. Mazkur fan psixologik xizmatni samarali tashkil etish, ta'lim oluvchilarning psixologik muammolarini aniqlash, kasbiy yo'naltirish, psixologik maslahat va korreksion ishlarni olib borishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi davrda psixodiagnostik metodlarning takomillashuvi, zamonaviy test texnologiyalarining rivojlanishi hamda raqamli psixodiagnostika vositalarining keng joriy qilinishi ushbu fanni chuqur o'rganishni yanada dolzarb qilib qo'ymoqda. Ayniqsa, ta'lim muassasalarida o'quvchilar bilan individual ishlash,

iqtidorli bolalarni aniqlash, stress, moslashuv va motivatsion holatlarni baholash jarayonida psixodiagnostikaning o'zini beqiyosdir.

Shuningdek, psixodiagnostika fanini o'rganish tinglovchilarda diagnostik tafakkurni shakllantirish, psixologik tadqiqot metodlaridan to'g'ri foydalanish, olingan natijalarni ilmiy asosda interpretatsiya qilish hamda professional etik me'yorlarga rioya etish kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Mazkur fan dasturi tinglovchilarga psixodiagnostikaning nazariy asoslari, metodologiyasi, asosiy diagnostik metodlari, testologiya, shaxs va individual xususiyatlarni diagnostika qilish usullari hamda psixodiagnostik xulosa tayyorlash bo'yicha zarur bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan.

Ushbu o'quv fani o'quv yuklamasi 72 soat bo'lib, shundan:

|                                 |           |
|---------------------------------|-----------|
| Jami auditoriya o'quv yuklamasi | - 72 soat |
| Jumladan: Nazariy mashg'ulotlar | - 12 soat |
| Amaliy mashg'ulotlar            | - 36 soat |
| Laboratoriya mashg'uloti        | - 24 soat |

## II. FANNING NOMI VA MAQSADI

**2.1. Fan nomi:** Psixodiagnostika.

**2.2. Fan maqsadi:** Tinglovchilarda psixodiagnostikaning nazariy asoslari, metodologiyasi va amaliy yo'nalishlari bo'yicha bilimlarni shakllantirish, shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini aniqlash, tahlil qilish va baholashga oid diagnostik metodlardan professional foydalanish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish.

**2.3.** Tinglovchilar ushbu fanni o'rganish natijasida milliy malaka tizimiga taalluqli quyidagi bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'ladilar:

| Bilim   | Ko'nikma  | Kompetensiya  |
|---|---|---|
| Psixodiagnostikaning predmeti, maqsadi va vazifalari.   | Psixodiagnostik metodikalarni tanlash va qo'llash.        | Psixodiagnostik faoliyatni mustaqil tashkil eta olish.              |
| Psixodiagnostikaning rivojlanish tarixi va asosiy yo'nalishlari.                                    | Test natijalarini qayta ishlash va tahlil qilish.         | Diagnostik metodlarni vaziyatga mos tanlay olish.                   |
| Psixodiagnostik tadqiqot metodlari va tamoyillari.  | Guruh va individual diagnostika o'tkazish                 | Psixologik muammolarni tahlil qilish va baholash.                   |
| Test, so'rovnoma, kuzatish, suhbat va eksperiment metodlarining xususiyatlari.                      | Amaliyotda psixodiagnostik etikaga rioya qilish           | Psixodiagnostik natijalar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish. |
| Intellekt, temperament, xarakter, motivatsiya va shaxs xususiyatlarini diagnostika qilish usullari. | Shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini aniqlash. | Ta'lim tashkilotlarida psixologik xizmat faoliyatini tashkil etish. |

|  |  |   |
|--|--|---|
| Psixodiagnostik metodikalarning ishonchliligi va validligi | Yoshga mos diagnostik metodlarni qo'llash                      | Professional etik me'yorlarga rioya qilish                                  |
| Yosh va pedagogik psixodiagnostika asoslari                | Psixologik suhbat va kuzatish olib borish                      | Innovatsion va zamonaviy diagnostik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish |
| Psixodiagnostik xulosalarni tayyorlash tartibi             | Diagnostik xulosa va tavsiyalar tayyorlash                     | Diagnostik xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish.                             |
| Psixodiagnostika etikasi va professional me'yorlari        | Psixodiagnostik ma'lumotlarni interpretatsiya qilish           | Psixodiagnostik ma'lumotlarni interpretatsiyalash.                          |
| Zamonaviy raqamli psixodiagnostika texnologiyalari.        | AKT vositalari asosida diagnostik platformalardan foydalanish. | Shaxsning psixologik rivojlanishini monitoring qilish.                      |

#### 2.4. Fan bo'yicha soatlar taqsimoti:

| №  | Mavzular   | Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat |                                   |        |              |      | Mustaqil ta'lim |
|----|--|--------------------------------------|-----------------------------------|--------|--------------|------|-----------------|
|    |  | Hammasi                              | Auditoriyalardagi o'quv yuklamasi |        |              | Jami |                 |
|    |  |                                      | jumladan:                         |        |              |      |                 |
|    |  |                                      | Nazariy                           | Amaliy | Laboratoriya |      |                 |
| 1  | Psixodiagnostika fanining predmeti, maqsadi va vazifalari      | 2                                    | 2                                 | 2      |              |      |                 |
| 2  | Psixodiagnostikaning tarixi va zamonaviy yo'nalishlari         | 2                                    | 2                                 | 2      |              |      |                 |
| 3  | Psixodiagnostikada etik tamoyillar va mutaxassis mas'uliyati   | 2                                    | 2                                 | 2      |              |      |                 |
| 4  | Psixodiagnostik metodlarning klassifikatsiyasi                 | 4                                    | 4                                 | 2      | 2            |      |                 |
| 5  | Kuzatish va suhbat metodlari                                   | 4                                    | 4                                 |        | 4            |      |                 |
| 6  | Anketa va so'rovnoma metodlari                                 | 4                                    | 4                                 |        | 4            |      |                 |
| 7  | Intellekt diagnostikasi  | 6                                    | 6                                 |        | 4            | 2    |                 |
| 8  | Shaxs psixodiagnostikasi                                       | 6                                    | 6                                 |        | 2            | 4    |                 |
| 9  | Proektiv metodikalar   | 6                                    | 6                                 |        | 2            | 4    |                 |
| 10 | Emotsional holat va stress diagnostikasi                       | 6                                    | 6                                 |        | 2            | 4    |                 |
| 11 | Kasbiy yo'nalganlik va qobiliyatlar diagnostikasi              | 6                                    | 6                                 |        | 2            | 4    |                 |
| 12 | Oilaviy munosabatlar va shaxslararo munosabatlar diagnostikasi | 6                                    | 6                                 |        | 2            | 4    |                 |

|              |  |           |           |           |           |           |  |
|--------------|--|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|--|
| 13           | Bolalar va o‘smirlar psixodiagnostikasi                      | 6         | 6         |           | 4         | 2         |  |
| 14           | Psixodiagnostik natijalarni tahlil qilish va interpretatsiya | 6         | 6         | 2         | 4         |           |  |
| 15           | Psixologik xulosa va tavsiya tayyorlash                      | 6         | 6         | 2         | 4         |           |  |
| <b>Jami:</b> |  | <b>72</b> | <b>72</b> | <b>12</b> | <b>36</b> | <b>24</b> |  |

### III. FAN BIRLIGINING MAZMUNI

#### 3.1. Nazariy mashg‘ulotlar mazmuni

##### **1-mavzu. Psixodiagnostika fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.**

Psixodiagnostika fanining predmeti, ob‘ekti va tadqiqot sohasi. Psixodiagnostika insonning individual-psixologik xususiyatlari, qobiliyatlari, intellektual salohiyati, emotsional holati va shaxsiy sifatlarini aniqlashga qaratilgan fan sifatida. Fanning maqsadi, psixologik holat va xususiyatlarni ilmiy asosda baholash hamda ularni amaliyotda qo‘llash. Psixodiagnostikaning asosiy vazifalari: diagnostika o‘tkazish, natijalarni tahlil qilish, psixologik xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish jarayonlari. Psixodiagnostikaning ta‘lim, tibbiyot, tashkilot, oila va maslahat psixologiyasi sohalari yuzasidan ma‘lumotlarga ega bo‘ladilar.

##### **2-mavzu. Psixodiagnostikaning tarixi va zamonaviy yo‘nalishlari.**

Psixodiagnostika fanining paydo bo‘lishi va rivojlanish bosqichlari. XIX–XX asrlarda psixologik testlashning shakllanishi, F.Galton, A.Bine, T.Simon, R.Kettel kabi olimlarning ilmiy qarashlari. Intellekt diagnostikasi, shaxsni baholash va eksperimental psixologiya rivojida psixodiagnostikaning o‘rni. Milliy psixologiyada psixodiagnostika sohasining rivojlanish tendensiyalari. Zamonaviy psixodiagnostikada raqamli texnologiyalar, onlayn testlar, kompyuterlashtirilgan diagnostika, kompleks baholash va multidissiplinar yondashuvlar yuzasidan ma‘lumotlarga ega bo‘ladilar.

##### **3-mavzu. Psixodiagnostikada etik tamoyillar va mutaxassis mas‘uliyati.**

Psixodiagnostik faoliyatda kasbiy etika va axloqiy me‘yorlarning ahamiyati. Konfidensiallik, mijoz huquqlarini himoya qilish, ixtiyoriy ishtirok, xolislik va inson qadr-qimmatini hurmat qilish tamoyillari. Psixologning diagnostik jarayondagi mas‘uliyati, test materiallaridan to‘g‘ri foydalanish, natijalarni noto‘g‘ri talqin qilishning salbiy oqibatlarini. Turli yosh va ijtimoiy guruhlar bilan ishlashda etik yondashuv, kasbiy kompetentlik va psixologning shaxsiy mas‘uliyati masalalari yuzasidan ma‘lumotlarga ega bo‘ladilar.

**4-mavzu. Psixodiagnostik metodlarning klassifikatsiyasi.** Psixodiagnostik metodlarning asosiy turlari, ularning xususiyatlari va qo‘llanish sohalari. Kuzatish, suhbat, anketa, test, eksperiment, proektiv va sotsiometrik metodlar. Metodlarning ob‘ektiv va sub‘ektiv turlari, standartlashgan va nostandart metodikalarning farqli jihatlari. Psixodiagnostik metodlarni tanlashda ishonchlik, validlik, reprezentativlik kabi mezonlarning ahamiyati. Turli diagnostik vaziyatlarda mos metodikalarni tanlash va ularni kompleks qo‘llash prinsiplari yuzasidan ma‘lumotlarga ega bo‘ladilar.

**14-mavzu. Psixodiagnostik natijalarni tahlil qilish va interpretatsiya.** Psixodiagnostik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilishning nazariy asoslari. Olingan natijalarni ob'ektiv baholash, statistik va sifat tahlili usullari. Natijalarni interpretatsiya qilishda individual xususiyatlar, yosh, ijtimoiy muhit va diagnostik vaziyatni hisobga olish masalalari. Psixologik diagnostikada xatolar, sub'ektiv ta'sirlar va interpretatsiyadagi muammolar. Natijalarni kompleks tahlil qilish asosida to'g'ri psixologik xulosa chiqarish usullari yuzasidan ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

**15-mavzu. Psixologik xulosa va tavsiya tayyorlash.** Psixologik xulosa tayyorlashning maqsadi, tuzilishi va mazmuniga qo'yiladigan talablar. Diagnostik natijalar asosida mijozning psixologik holati, shaxsiy xususiyatlari va muammolarini ilmiy asosda bayon qilish usullari. Psixologik xulosada aniqlik, xolislik va kasbiy etika talablariga rioya qilish masalalari. Korreksion, profilaktik va rivojlantiruvchi tavsiyalar ishlab chiqish, mijozning ehtiyoj va imkoniyatlarini hisobga olgan holda amaliy tavsiyalar berish usullari. Psixologik xulosani rasmiylashtirish va turli muassasalar uchun tayyorlash xususiyatlari yuzasidan ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

### **3.2. Amaliy mashg'ulotlar mazmuni**

**4-mavzu. Psixodiagnostik metodlarning klassifikatsiyasi.** Psixodiagnostik metodlarning asosiy turlari, ularning nazariy asoslari va amaliyotda qo'llanilish xususiyatlari. Ob'ektiv va sub'ektiv, standartlashgan va nostandart diagnostik metodlar o'rtasidagi farqlar. Kuzatish, suhbat, anketa, test, eksperiment, proektiv va sotsiometrik metodlarni turli diagnostik vaziyatlarda tanlash mezonlari. Tinglovchilarda diagnostik maqsaddan kelib chiqqan holda metodlarni to'g'ri tanlash va kompleks qo'llash. Psixodiagnostik metodlarning ishonchliligi, validligi va natijalar ob'ektivligiga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

**5-mavzu. Kuzatish va suhbat metodlari.** Kuzatish va suhbat metodlarini tashkil etish, rejalashtirish va amaliy qo'llash jarayonlari. Tabiiy va laboratoriya sharoitida kuzatish o'tkazish, kuzatish kartalari va protokollarini tuzish. Suhbat va intervyu turlari, savollarni to'g'ri shakllantirish, mijoz bilan psixologik kontakt o'rnatish usullari. Verbal va neverbal xulq-atvorni baholash, emotsional reaksiyalarni kuzatish va natijalarni qayd qilish ko'nikmalari. Suhbat jarayonida etik tamoyillarga rioya qilish va olingan ma'lumotlarni tahlil qilish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

**6-mavzu. Anketa va so'rovnoma metodlari.** Anketa va so'rovnoma metodlarini ishlab chiqish, tuzish va o'tkazish. Savollarning turlari, ularni to'g'ri shakllantirish, shkalalardan foydalanish va respondentlar bilan ishlash qoidalari. So'rovnoma natijalarini yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish usullari. Onlayn platformalar orqali anketa tayyorlash va avtomatik tahlil qilish imkoniyatlari. Tinglovchilar turli maqsadlarga mos anketa modellarini ishlab chiqish va natijalar asosida psixologik xulosa chiqarish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

**7-mavzu. Intellekt diagnostikasi.** Intellekt darajasi va kognitiv qobiliyatlarni baholashga qaratilgan diagnostik metodikalar bilan ishlash. Raven

matriksalari, Veksler testlari va boshqa intellekt testlarini o'tkazish, ballarni hisoblash va natijalarni interpretatsiya qilish usullari. Intellektning turlari, aqliy rivojlanish darajalari va kognitiv jarayonlarni tahlil qilish. Tinglovchilar test protokollari bilan ishlash, diagnostik xatolarni aniqlash va intellektual rivojlanish bo'yicha psixologik xulosa tayyorlash. Intellekt diagnostikasida yosh va individual xususiyatlarni hisobga olish masalalari bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

**8-mavzu. Shaxs psixodiagnostikasi.** Shaxs xususiyatlarini baholashga qaratilgan diagnostik metodikalar bilan ishlash. Ayzenk, Kettel, MMPI va boshqa shaxs testlarini o'tkazish, natijalarni qayta ishlash va tahlil qilish usullari. Shaxsning temperament, xarakter, motivatsiya va emotsional barqarorlik kabi xususiyatlarini baholash. Tinglovchilarda psixologik portret tuzish, test natijalarini kompleks tahlil qilish va interpretatsiya qilish. Shaxs diagnostikasi natijalaridan psixologik maslahat va korreksion ishlar rejasini ishlab chiqishda foydalanish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

**9-mavzu. Proektiv metodikalar.** Proektiv diagnostik metodikalarning mazmuni va ularni amaliy qo'llash xususiyatlari. "Odam rasmi", "Oila rasmi", tugallanmagan gaplar, Rorshax va tematik appersepsiya testlari elementlari bilan ishlash. Proektiv materiallar orqali shaxsning ichki kechinmalari, emotsional muammolari va munosabatlar tizimini aniqlash usullari. Rasm va verbal materiallarni interpretatsiya qilish, simvolik belgilarni tahlil qilish va diagnostik xulosa chiqarish. Proektiv metodikalarni bolalar va kattalar bilan ishlashda qo'llashning o'ziga xos jihatlari bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

**10-mavzu. Emotsional holat va stress diagnostikasi.** Shaxsning emotsional holati, xavotir, depressiv belgilar va stress darajasini baholashga qaratilgan diagnostik metodikalar bilan ishlash. Spilberger, Bek, Lyusher va boshqa testlar yordamida emotsional holatni baholash usullari. Tinglovchilar stress omillarini aniqlash, emotsional barqarorlik darajasini tahlil qilish va psixologik tavsiyalar ishlab chiqish. Emotsional buzilishlarni aniqlashda kompleks diagnostika va natijalarni interpretatsiya qilish masalalari. Stress profilaktikasi va psixologik qo'llab-quvvatlash bo'yicha amaliy yondashuvlar bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

**11-mavzu. Kasbiy yo'nalganlik va qobiliyatlar diagnostikasi.** Kasbiy qiziqish, qobiliyat va moyilliklarni aniqlashga qaratilgan diagnostik metodikalar bilan ishlash. Golland, Klimov va boshqa kasbiy diagnostika testlarini o'tkazish, natijalarni tahlil qilish va interpretatsiya qilish usullari. Shaxsning kasbiy salohiyati, liderlik xususiyatlari va individual imkoniyatlarini baholash. Tinglovchilar kasb tanlash, qayta kasbga yo'naltirish va professional rivojlanish bo'yicha psixologik tavsiyalar ishlab chiqish. Kasbiy diagnostikada shaxsning yosh va ijtimoiy xususiyatlarini hisobga olish masalalari bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

**12-mavzu. Oilaviy munosabatlar va shaxslararo munosabatlar diagnostikasi.** Oilaviy munosabatlar va jamoadagi shaxslararo munosabatlarni o'rganishga qaratilgan diagnostik usullar bilan ishlash. Sotsiometriya, munosabatlarni baholash testlari va oilaviy diagnostika metodikalarini o'tkazish va

tahlil qilish. Oila a'zolari o'rtasidagi emotsional munosabatlar, konfliktlar va ijtimoiy rollarni baholash usullari. Jamoada liderlik, muloqot va munosabatlar tizimini tahlil qilish. Diagnostik natijalar asosida oilaviy va ijtimoiy munosabatlarni yaxshilash bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

**13-mavzu. Bolalar va o'smirlar psixodiagnostikasi.** Bolalar va o'smirlar bilan psixodiagnostik ishlarni tashkil etishning o'ziga xos jihatlari. Yosh xususiyatlariga mos test va metodikalarni tanlash, diagnostika jarayonini tashkil etish va natijalarni tahlil qilish usullari. Bolalarda kognitiv rivojlanish, emotsional holat, xulq-atvor va ijtimoiy moslashuvni baholash. Proektiv metodlar, kuzatish va suhbat usullarini bolalar bilan ishlashda qo'llash xususiyatlari. Ota-ona va pedagoglar bilan hamkorlikda diagnostik ma'lumotlardan foydalanish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

**14-mavzu. Psixodiagnostik natijalarni tahlil qilish va interpretatsiya.** Psixodiagnostik natijalarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish. Turli metodikalar natijalarini taqqoslash, kompleks tahlil qilish va psixologik xulosa chiqarish usullari. Natijalarni interpretatsiya qilishda individual xususiyatlar, yosh, ijtimoiy muhit va diagnostik vaziyatni hisobga olish masalalari. Interpretatsiya jarayonida uchraydigan xatolar va sub'ektiv ta'sirlarni oldini olish usullari. Tinglovchilar diagnostik ma'lumotlarni ilmiy asosda talqin qilish va ulardan amaliy faoliyatda foydalanish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

**15-mavzu. Psixologik xulosa va tavsiya tayyorlash.** Psixologik xulosa tayyorlashning tuzilishi, mazmuni va rasmiylashtirish talablari. Diagnostik ma'lumotlarni tizimlashtirish, shaxsning psixologik xususiyatlarini aniq va tushunarli shaklda bayon qilish usullari. Psixologik tavsiyalarni ishlab chiqishda mijozning individual xususiyatlari, ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olish masalalari. Korreksion, profilaktik va rivojlantiruvchi tavsiyalar tayyorlash. Psixologik xulosani ta'lim muassasasi, tibbiy muassasa yoki tashkilot talablariga mos holda tayyorlash bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

### **3.3. Laboratoriya mashg'ulotlar mazmuni**

**7-mavzu. Intellekt diagnostikasi.** Intellekt darajasi va kognitiv qobiliyatlarni baholashga qaratilgan diagnostik metodikalarni amaliy qo'llash. Raven matritsalarini, Veksler testlari va boshqa intellekt testlarini o'tkazish, natijalarni hisoblash va tahlil qilish bo'yicha laboratoriya ishlari. Test protokollarini to'ldirish, diagnostik ma'lumotlarni qayta ishlash va intellektual rivojlanish darajasi bo'yicha psixologik xulosa tayyorlash ko'nikmalari shakllantirish. Intellekt diagnostikasida yosh va individual xususiyatlarni hisobga olish masalalari ko'rib chiqiladi.

**8-mavzu. Shaxs psixodiagnostikasi.** Shaxs xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan diagnostik metodikalar bilan ishlash amaliy jihatdan. Ayzenk, Kettel, MMPI va boshqa shaxs testlarini o'tkazish, natijalarni qayta ishlash va interpretatsiya qilish bo'yicha laboratoriya mashg'ulotlari. Tinglovchilar shaxsning temperament, xarakter, motivatsiya va emotsional barqarorlik xususiyatlarini baholash hamda psixologik portret tuzish. Diagnostik natijalar asosida psixologik tavsiyalar ishlab chiqish usullari ham ko'rib chiqiladi.

**9-mavzu. Proektiv metodikalar.** Proektiv diagnostik metodikalarni o‘tkazish va tahlil qilish. “Odam rasmi”, “Oila rasmi”, tugallanmagan gaplar va boshqa proektiv usullar orqali shaxsning ichki kechinmalari, emotsional holati va munosabatlar tizimini baholash usullari. Rasm va verbal materiallarni interpretatsiya qilish, simvolik belgilarni tahlil qilish hamda diagnostik xulosa chiqarish. Proektiv metodikalarni turli yosh guruhlari bilan ishlashda qo‘llash xususiyatlari tahlil qilinadi.

**10-mavzu. Emotsional holat va stress diagnostikasi.** Emotsional holat, xavotir va stress darajasini aniqlashga qaratilgan diagnostik metodikalar bilan ishlash. Spilberger, Bek, Lyusher va boshqa testlar yordamida emotsional holatni baholash, natijalarni tahlil qilish va interpretatsiya qilish bo‘yicha laboratoriya ishlari. Stress omillarini aniqlash, emotsional barqarorlik darajasini baholash va psixologik tavsiyalar ishlab chiqish. Emotsional buzilishlarni aniqlashda kompleks diagnostik yondashuvlar ko‘rib chiqiladi.

**11-mavzu. Kasbiy yo‘nalganlik va qobiliyatlar diagnostikasi.** Kasbiy qiziqish, qobiliyat va moyilliklarni baholashga qaratilgan diagnostik metodikalarni amaliy qo‘llash. Golland, Klimov va boshqa kasbiy diagnostika testlarini o‘tkazish, natijalarni qayta ishlash va tahlil qilish bo‘yicha laboratoriya. Tinglovchilar shaxsning kasbiy salohiyati, liderlik xususiyatlari va individual imkoniyatlarini baholash hamda kasb tanlash bo‘yicha psixologik xulosa tayyorlash. Kasbiy diagnostika natijalari asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish masalalari ham ko‘rib chiqiladi.

**12-mavzu. Oilaviy munosabatlar va shaxslararo munosabatlar diagnostikasi.** Oilaviy muhit va jamoadagi munosabatlarni o‘rganishga qaratilgan diagnostik metodikalar bilan ishlash. Sotsiometriya, munosabatlarni baholash testlari va oilaviy diagnostika usullarini o‘tkazish hamda natijalarini tahlil qilish bo‘yicha laboratoriya mashg‘ulotlari. Oila a‘zolari o‘rtasidagi emotsional munosabatlar, konfliktlar va ijtimoiy rollarni aniqlash usullari. Sotsiomatritsa va sotsiogramma tuzish, munosabatlar tizimini tahlil qilish hamda psixologik tavsiyalar ishlab chiqish ko‘nikmalari shakllantiriladi.

**13-mavzu. Bolalar va o‘smirlar psixodiagnostikasi.** Bolalar va o‘smirlar bilan psixodiagnostik ishlarni tashkil etish va o‘tkazishning amaliy jihatlari. Yosh xususiyatlariga mos test va metodikalarni tanlash, diagnostika jarayonini tashkil etish va natijalarni tahlil qilish bo‘yicha laboratoriya ishlari. Bolalarda kognitiv rivojlanish, emotsional holat, xulq-atvor va ijtimoiy moslashuvni baholash usullari. Proektiv metodlar, kuzatish va suhbat usullaridan foydalanish hamda diagnostik natijalar asosida psixologik xulosa va tavsiyalar tayyorlash ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

#### **IV. NAZORAT SAVOLLARI**

1. Psixodiagnostika fanining predmeti nima?
2. Psixodiagnostikaning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
3. Psixodiagnostik metod deganda nima tushuniladi?
4. Test metodining afzalliklari nimalardan iborat?

5. Psixologik testlarning turlari qanday?
6. Ishonchlilik nima?
7. Kuzatish metodining o‘ziga xos jihatlari qanday?
8. Suhbat metodining afzallik va kamchiliklari nimalardan iborat?
9. Anketa metodining ahamiyati nimada?
10. Intellect diagnostikasi nima?
11. Temperamentni aniqlash metodlari qanday?
12. Xarakter diagnostikasining asosiy yo‘nalishlari qanday?
13. Shaxs diagnostikasida proektiv metodlarning o‘rni qanday?
14. Psixodiagnostik tadqiqotda etik me‘yorlar nima uchun muhim?
15. Bolalar psixodiagnostikasining o‘ziga xosligi nimada?
16. Pedagogik psixodiagnostika nima?
17. Psixodiagnostik xulosa qanday tuziladi?
18. Psixologik diagnostikada standartlashtirish nima?
19. Kasbiy yo‘naltirishda psixodiagnostikaning roli qanday?
20. Stress va emotsional holatlarni diagnostika qilish usullari qanday?
21. Psixodiagnostikada interpretatsiya nima?
22. Guruhiy diagnostikaning afzalliklari nimada?
23. Zamonaviy psixodiagnostikaning istiqbollari qanday?

## **V. O‘QITISH VOSITALARI**

1. Doska;
2. Flipchart qog‘ozi;
3. Qog‘oz A4 formatli yetarlicha;
4. Markerlar;
5. Tarqatma materiallar;
6. Multimediya to‘plami (kompyuter, videoproektor, elektron doska, monitor).

## **VI. FOYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI**

### **Me‘yoriy-huquqiy hujjatlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 23-iyulda “Aholiga psixologik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi O‘RQ-989-son Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrda “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-son Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrda “Kasbiy ta’limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrda “Kasbiy ta’lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-190-son Farmoni.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrda “Kasbiy ta’lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-316-son Qarori.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyulda “O‘quvchilarni psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 577-son Qarori.

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-fevralda “Professional ta’lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 106-son Qarori.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Karimova V.M. Psixologiya. -T.: O‘qituvchi, 2019. 320 b.
2. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. -T.: Universitet, 2020. 410 b.
3. Nishonova Z.T. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. 256 b.
4. Davletshin M.G. Zamonaviy psixologiya. -T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2017. 300 b.
5. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. -М.: Питер,2018. 713 с.
6. Немов Р.С. Психология. Книга 3. Психодиагностика. -Москва: Владос, 2019. 640 с.
7. Бурлачук Л.Ф. Психодиагностика. -Санкт-Петербург: Питер, 2020. 384 с.
8. Anastazi A., Urbina S. Psychological Testing. -New Jersey: Prentice Hall, 2017. 720 p.
9. Райковский Я. Психологическая диагностика. -Москва: Академия, 2018. 432 с.
10. Бодалев А.А., Столин В.В. Общая психодиагностика. -Москва: МГУ, 2019. 440 с.

### **Internet saytlar**

1. [www.library.com](http://www.library.com)
2. [www.expert.psychology.ru](http://www.expert.psychology.ru)
3. [www.referat.ru](http://www.referat.ru)
4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
5. [www.psycho.all.ru](http://www.psycho.all.ru)
6. [www.psy.piter.com](http://www.psy.piter.com).
7. http: [www.lib.psichology.msu.ru](http://www.lib.psichology.msu.ru)
8. [www.psychology.net.ru](http://www.psychology.net.ru)